

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA

**BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

KARIMOV ERKIN QODIROVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLAR SIFATINI BAHOLASH ISHLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI
VOBKENT TUMANI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по биологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on biological sciences**

Karimov Erkin Qodirovich

Sug‘oriladigan tuproqlar sifatini baholash ishlarini takomillashtirish
(Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida) 3

Каримов Эркин Кодирович

Совершенствование работ по оценки качества орошаемых почв (на
примере Вабкентского района Бухарской области)..... 21

Karimov Erkin Kodirovich

Improvement of the work on assessing the quality of irrigated soils (on the
example of the Vobkent district of the Bukhara region)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

KARIMOV ERKIN QODIROVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLAR SIFATINI BAHOLASH ISHLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI
VOBKENT TUMANI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/B258 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Artikova Hafiza Tuymurodovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Parpiyev G'ofurjon Toxirovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Uraimov Tojiddin
qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.05.03 raqamli Ilmiy Kengashning 2023- yil «28» 09 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93); e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (296 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «13» 09 kuni tarqatildi.
(2023-yil «13» 09 dagi № 5 -raqamli restr bayonnomasi)



G'.Yuldashev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

U.B.Mirzayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

A.T.Turdaliyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda «...qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishga 1500,0 mln. ga maydondan foydalanib kelinmoqda. Shundan yuqori sifatli yerlar 400,0 mln. ga, yaxshi sifatli yerlar 800,0 mln. ga va past sifatli (marginal) yerlar 300,0 mln. ga ni tashkil qiladi»¹. Shu sababli qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarda tabiiy yoki inson faoliyati ta‘sirida yuz berayotgan turli salbiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini qayta tiklash, oshirish va baholash ishlarini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Dunyoda sug‘oriladigan tuproqlar unumdorligini shakllanishi va qayta tiklanishi evolyutsiyasi qonuniyatlarini aniqlash, tuproq xossa-xususiyatlarini dehqonchilik ta‘sirida o‘zgarishini hisobga olgan holda unumdorlik darajasini belgilash orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan ekin turini tanlash, tuproq unumdorligini yaxshilash va oshirish, tuproqlarni sifat jihatdan baholash hamda boshqarishda axborot texnologiyalarni qo‘llashga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sug‘oriladigan maydonlarning tuproq sifatini baholash, unumdorligini saqlash va oshirish, unumdorligi past bo‘lgan yerlardan samarali foydalanishda yangi texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2020-2030–yillarga mo‘ljallangan strategiyasida «...zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni hisobga olishning kadastr tizimini takomillashtirish, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning kadastr bahosini aniqlash tizimini qayta ko‘rib chiqish»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlaridagi sug‘oriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini aniqlash, sug‘oriladigan tuproqlarda turli omillar ta‘sirida yuzaga kelayotgan salbiy jarayonlarni oldini olish, tuproq sifatini baholash ishlarini takomillashtirish va unumdorlik darajasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi PF-60-son «2022-2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi va 2019–yil 17–iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹<http://www.fao.org/3/a-i1688r.pdf>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga Mo‘ljallangan Strategiyasini Tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Respublikamizning choʻl mintaqasi sugʻoriladigan tuproqlarning hosil boʻlish va tarqalish qonuniyatlari, xossaxususiyatlari, unumdorligini baholash, tuproq unumdorligini oshirish va saqlash, boshqarish hamda sohada axborot texnologiyalarini qoʻllash boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari N.V.Kimberg, A.Z.Genusov, I.P.Gerasimov, O.K.Komilov, L.T.Tursunov, R.Qoʻziyev, L.A.Gʻafurova, S.Abdullayev, S.O.Azimboyev, V.Yu.Isaqov, R.Qurvantoyev, I.U.Urazbayev, M.I.Ruzmetov, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abduraxmonov, Gʻ.T.Parpiyev, H.T.Artikova, T.A.Abdraxmonov, A.U.Axmedov, A.J.Ismonov, Z.Bahodirov, U.T.Sobitov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Xorijda tuproq unumdorligini baholash boʻyicha Bünemann E.K., Mäder Paul., Wohlfahrt J., Brussaard L., Bongiorno G., Ron de Goede, Geissen V., Fleskens L., Wijnand Sukkel, Zhanguo Bai, Caspari T., De la Rosa D., Anaya-Romero M., Diaz-Pereira E., Heredia N., F Shahbazi kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin, choʻl tuproqlari xossaxususiyatlari sugʻorish taʼsirida oʻzgarishi, unumdorligini baholashni takomillashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining GCH/SEC/293/GFF raqamli «Markaziy Osiyo va Turkiyaning qurgʻoqchilikka uchragan hamda shoʻrlangan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish landshaftlarida tabiiy resurslarni kompleks boshqarish» (2019-2022–yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi, 2011-1/1-son «Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi barcha fermer xoʻjaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sugʻoriladigan yerlarining tuproq xaritalarini tuzish va tuproqlarini baholash» (2011–y.) mavzusidagi shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sugʻoriladigan tuproqlar sifat koʻrsatkichlarini aniqlash, takomillashtirilgan dastur asosida baholash hamda tuproqlardan samarali foydalanishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sugʻoriladigan tuproqlarning kimyoviy, agrokimyoviy xossa va xususiyatlarini aniqlash;

sugʻoriladigan qumli-choʻl tuproqlarini baholashning bazaviy shkalasini takomillashtirish;

tuproq sifatini baholashning axborot texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirilgan dasturini tayyorlash;

geoaxborot tizimlaridan foydalanib hududning 1:10000 masshtabli elektron raqamli tuproq sifatini baholash hamda tuproq-iqlim sharoiti va unumdorligini inobatga olib qishloq xoʻjalik ekinlarini joylashtirish xaritalarini tuzish;

tuproq sifatini baholashda axborot texnologiyalarini qo'llashning samaradorligini aniqlash, tuproq xossa-xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini «Java 8.0» dasturlash tilida shakllantirish;

tuproq-iqlim sharoitlari va unumdorligini hisobga olgan holda tuproqlardan samarali foydalanish va qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Vobkent tumani sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, qumli-cho'l, o'tloqi-allyuvial, o'tloqi-botqoq tuproqlari olingan.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning xossa-xususiyatlari, tuproq unumdorligi, bonitirovkalash shkalasi, bonitirovka koeffitsientlari, tuproq sifatini baholash, tuproq sifatini baholash xaritalari, «Soil quality» dasturi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha, shuningdek, oxirgi nashrda chop etilgan «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma» asosida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili dispersion statistika (B.A.Dospexov) uslubi asosida hisoblangan hamda «Java 8.0» dasturlash tilida tuzilgan «Soil quality» dasturidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, qumli-cho'l, o'tloqi-allyuvial va o'tloqi-botqoq tuproqlaridagi oziqa moddalar, sho'rlanish jarayonlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar dinamikasi aniqlangan;

sug'oriladigan qumli-cho'l tuproqlarni o'zlashtirish va sug'orish ta'sirida gidromorf tartibotning jadallashishi, meliorativ holati salbiy tomonga o'zgarishi hamda haydov qatlami mexanik tarkibi og'irlashib borishi asoslab berilgan;

raqamli texnologiyalar asosida tuproq unumdorligini baholash usullarini takomillashtirishda tuproq xossa-xususiyatlari > tuproq eksplikatsiyasi > «Soil quality» dasturi ketma-ketligi mexanizmi asoslangan;

qumli-cho'l tuproqlari uchun sug'oriladigan tuproqlarni bonitirovkalashning bazaviy shkalasi takomillashtirilgan;

an'anaviy usulga nisbatan raqamli texnologiya yordamida tuproq unumdorligini baholashning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan, vaqt sarfi va harajatlar miqdori har bir massiv uchun o'rtacha 0,6 odam/oyga tejalishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Vobkent tumani Al-Buxoriy massivining 900 gektar sug'oriladigan yer maydoni uchun 1:10000 miqyosdagi elektron raqamli tuproq sifatini baholash xaritasi tuzilgan;

Vobkent tumani Al-Buxoriy massivi tuproq sifatini baholash ma'lumotlari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish bo'yicha 1:10000 miqyosli elektron raqamli xaritasi tuzilib, tavsiyalar ishlab chiqilgan;

sug'oriladigan qumli-cho'l tuproqlarini o'zlashtirish va sug'orish natijasidagi xossa va xususiyatlaridagi o'zgarishlaridan kelib chiqib baholashning negizli shkalasiga o'zgartirishlar kiritilgan;

tuman massivlarining tuproq sifatini baholash va tuproq xossa-xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar «Java 8.0» dasturlash tilida tuzilgan «Soil quality» dasturi bazasida shakllantirilib <http://ballbonitet.herokuapp.com/> veb saytiga joylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarning tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslublardan foydalangan holda o'tkazilganligi, tadqiqot natijalarining statistik tahlildan o'tkazilganligi, tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilganligi, amaliyotga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'oriladigan tuproqlarning o'ziga xos shakllanishi, tabiiy va antropogen omillar ta'sirida ma'lum vaqt va makonda tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorligining o'zgarishi, tuproq unumdorligining hozirgi holati aniqlanganligi, qumli-cho'l tuproqlarni bonitirovkalash shkalasi takomillashtirilganligi, tuproq sifatini baholashda axborot texnologiyalarini qo'llash samara berishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'rganilgan hududlar uchun tuzilgan tuproq sifatini baholash, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish xaritalari yordamida yerlarning normativ qiymatini hisoblash, yagona yer solig'ini belgilash, tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorlik darajasiga qarab qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, yer resurslaridan samarali foydalanishga doir chora-tadbirlar belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'oriladigan tuproqlar sifatini baholash ishlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sug'oriladigan tuproqlarning mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi, gipsli, gleyli qatlam qalinligi, tuzlar miqdori, gumus, fosfor va kaliy bilan ta'minlanganlik darajalari va boshqa xususiyatlari asosida tuproq sifatini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan «Soil quality» dasturi «O'zdavyerloyiha» instituti «Buxvilyerloyiha» bo'linmasida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2020–yil 18–dekabrdagi 02/022-4474-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproq ball bonitetini hisoblash axborot texnologiyasi asosida amalga oshirilib, vaqt va ishchi kuchidan tejashga, yer kadastri ma'lumotlarini yangilashga va ma'lumotlarni yagona bazada to'planishiga erishilgan;

Vobkent tumani Al-Buxoriy massivi sug'oriladigan yer maydonlari uchun 1:10 000 miqyosdagi tuproq sifatini baholash hamda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish xaritalari hududning 900 gektar sug'oriladigan yer maydonida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2020-yil 18–dekabrdagi 02/022-4474-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'oriladigan yerlarning normativ qiymatini aniqlash, yagona yer solig'ini hisoblash, ekinlar hosildorligini belgilash, unumdorligi past bo'lgan yerlardan oqilona va samarali foydalanish va qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda asos bo'lib xizmat qilgan;

«Vobkent tumani tuproq-iqlim sharoitlari va unumdorligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish bo‘yicha tavsiyalar» Buxoro viloyati tuproqlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020–yil 18–dekabrda 02/022-4474-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Vobkent tumani tuproq-iqlim sharoitlari va unumdorligidan kelib chiqib qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilashda qo‘llanma sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan 1 ta tavsiyanoma, 1 ta dasturiy ta‘minot guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Cho‘l mintaqasi sug‘oriladigan tuproqlarining hozirgi holati**» (Adabiyotlar sharhi) deb nomlangan birinchi bobi «*Cho‘l mintaqasi sug‘oriladigan tuproqlarining o‘rganilish holati*» deb nomlanib, unda cho‘l mintaqasidagi turli tuproq-iqlim sharoitlarida shakllangan tuproqlarning, xossaxususiyatlari, unumdorligiga ta‘sir etuvchi omillar, ularning unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, hamda muhofazalashga qaratilgan ilmiy ishlarning natijalari keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Buxoro viloyati sug‘oriladigan tuproqlarining tabiiy sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro vohasi tuproqlari, geografik tarqalishi, iqlimi, geologik-geomorfologik tuzilishi, relyefi, gidrogeologiyasi va gidrologiyasi, o‘simliklar dunyosi va inson faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, Buxoro viloyati sug‘oriladigan tuproqlari asosan allyuvial va allyuvial-prolyuvial yotqiziqalarda rivojlanganligi, tuproq paydo bo‘lishi jarayonida sizot suvlarining ta‘siri, uzoq yillar dehqonchilik qilib kelinayotgan maydonlarda qalin agroirrigatsion qatlam hosil bo‘lganligi bayon qilingan. Shuningdek, cho‘l mintaqasi ob-havosi bevosita tuproqlar rivojlanishi va xossalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi alohida ta‘kidlangan. Hidrologik va gidrogeologik sharoitlari bo‘yicha sohada qilingan ishlar jadvallarda o‘z aksini topgan. Vohaning sug‘orma

dehqonchilik qilinadigan hududida tarqalgan har bir tuproq xossa-xususiyatlari, geomorfologiyasi, ekologik-meliorativ holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Tadqiqotlar obyekti va uslublari**» deb nomlangan bo'lib, Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi turli tuproq-iqlim sharoitlarida shakllangan sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, qumli-cho'l, o'tloqi-allyuvial, o'tloqi-botqoq tuproqlari tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirildi. Izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi yordamida dispersion uslub asosida hisoblandi va to'plangan ma'lumotlar E.Q.Karimov (2019) tomonidan ishlab chiqilgan «Soil quality» dasturi ma'lumotlar bazasiga kiritildi.

Dissertatsiyaning «**Buxoro viloyati Vobkent tumani sug'oriladigan tuproqlari tavsifi va unumdorligi**» deb nomlangan to'rtinchi bobi ikki banddan iborat bo'lib, birinchi bandi «*Buxoro viloyati Vobkent tumani sug'oriladigan tuproqlarining xossa va xususiyatlari*» deb nomlangan. Bu bandda tumanda tarqalgan tuproqlar to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Sug'oriladigan tuproqlarning asosiy qismini o'tloqi-allyuvial va o'tloqi-cho'l tuproqlar tashkil qilib, qumli-cho'l va o'tloqi-botqoq tuproqlar kichik maydonlarda tarqalgan (1-rasm).

Sug'oriladigan o'tloqi-cho'l tuproqlar uchlamchi platoning delyuvial-prolyuvial yuzalarda tarqalgan bo'lib, ularning o'tmishdoshi — sur-qo'ng'ir tuproqlar hisoblanadi. Maydoni jihatidan mexanik tarkibi bo'yicha qumloqlar 56,94 foizni, og'ir qumoqlar 18,38 foizni, o'rta qumoqlar 15,3 foizni va yengil qumoqli tuproqlar 9,38 foizni tashkil etadi.



1-rasm. Vobkent tumanida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlar maydonlari, foiz hisobida


Sug'orilish davri ko'p bo'lmaganligi sababli qatlamlarda fizik loy (<0,01mm) bir xil taqsimlanmagan. Uning miqdori tuproq profili bo'yicha qumlarda 7,1-9,24 foiz, qumloqlarda 10,48-17,08 foiz, yengil qumoqlarda 26,65-29,68 foiz, o'rta qumoqlarda 33,46-43,8 foiz va og'ir qumoqlarda 45,1-52,71 foiz kuzatilsa, yirik chang (0,05-0,01mm) zarrachalari esa 24,03-59,72 % atrofida ekanligi aniqlandi.

Sug'oriladigan o'tloqi-cho'l tuproqlar sho'rlanish darajasi va tuzlar tarkibi o'zgaruvchandir. 2004-yildagi ma'lumotlariga ko'ra kuchsiz sho'rlangan yerlar-29,7 foiz, o'rtacha sho'rlangan yerlar - 44,5 foiz, kuchli sho'rlangan yerlar - 20,45

foiz va juda kuchli sho‘rlangan yerlar 5,36 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib, sho‘rlanmagan (yuvilgan) yerlar 12,54%, kuchsiz sho‘rlangan yerlar-23,57%, o‘rtacha sho‘rlangan yerlar - 50,69%, kuchli sho‘rlangan yerlar - 13,2% ni tashkil etib, sho‘ri yuvilgan maydonlar miqdori 12,54 foizga ko‘paygan bo‘lsa, kuchsiz sho‘rlangan maydonlar 6,13 foizga, kuchli va juda kuchli sho‘rlangan maydonlar mos ravishda 7,25 va 5,36 foizga kamayishi hisobiga o‘rtacha sho‘rlangan yerlar maydoni 6,19 foizga oshganligi kuzatildi.

Mazkur tuproqlar suvli so‘rim tarkibida quruq qoldiq miqdori xlorid-sulfatli sho‘rlanish tipidagi tuproqlarda 0,126-0,640 foizgacha, sulfatli sho‘rlanish tipidagi tuproqlarning yuqori qatlamlarida esa 0,501-0,615 foizgacha o‘zgarib turadi. Singdirish sig‘imi tuproq qatlamlarida 100 g. tuproqda 7,26-11,30 mg-ekv ni tashkil etib, singdirilgan kationlar tarkibida kalsiy 46,51-68,73; magniy 26,35-48,28; kaliy 1,8-5,07 va natriy 1,84-4,63 foizni tashkil etadi

Ushbu tuproqlar haydov qatlamlarida gumus 0,524-1,01, umumiy azot miqdori 0,034-0,070, fosfor 0,079 - 0,107 va kaliy 0,915-1,094 foizgacha kuzatiladi. C:N nisbati 7,03-9,36 oralig‘ida tebranadi. Harakatchan shakldagi fosfor bilan juda kam va kam ta‘minlangan tuproqlar hisoblanadi. Uning miqdori mos ravishda 11,7-13,3 mg/kg va 15,0-15,8 mg/kg ni tashkil etadi. Almashinuvchi kaliy bilan kam va o‘rtacha darajada ta‘minlangan bo‘lib, uning miqdori haydov qatlamida mos ravishda 136-190 mg/kg va 200-229 mg/kg ni tashkil etadi. Karbonat miqdori tuproq yuza qatlamida 7,9-10,2 foizgacha uchrasa, quyi qatlamlarda esa 5,4-8,3 foiz kuzatiladi.



2-rasm. Vobkent tumani sug‘oriladigan tuproqlarining gumus va oziqa elementlar zahiralari dinamikasi (2004-2018-yy., t/ga hisobida)

2004-yilda 0-30 sm qatlamdagi gumusning zahirasi 26,4 t/ga, yalpi azot zahirasi 2,01 t/ga, umumiy fosfor 4,6 t/ga va kaliy zahirasi 41,07 t/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib, 0-30 sm qatlamdagi gumusning zahirasi o‘rtacha 28,87 t/ga, yalpi azot zahirasi 2,10 t/ga, umumiy fosfor 4,32 t/ga va kaliy zahirasi 38,95 t/ga ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu tuproqlarni o‘zlashtirish natijasida haydov qatlamida gumus va azot zahiralari mos ravishda

+2,47 va +0,09 t/ga oshgan bo'lsa, umumiy fosfor va kaliy zahiralari -0,28 va -2,12 t/ga kamaygan (2-rasm). 0-100 sm qatlamda oziqa elementlarining o'rtacha zahirasi quyidagicha ekanligi: gumus 66,83 t/ga; yalpi azot 4,70 t/ga; umumiy fosfor 11,42 t/ga va kaliy 118,86 t/ga aniqlandi.

Qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orma dehqonchilikda foydalanish natijasida ushbu tuproqlarning suv rejimi yarim gidromorf tuproqlarga o'zgarganligi kuzatildi.

Qumli-cho'l tuproqlari namlanish rejimi bo'yicha avtomorf tuproqlar hisoblanib, o'zlashtirish va sug'orish natijasida sizot suvlari 2,5-3,0 m gacha ko'tarilishiga sabab bo'lgan, hamda tuproqlardagi sho'rlanish darajalarining ortishiga olib kelgan. Tuproq yuza qatlamlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar bevosita sug'orish va sizot suvlari ta'sirida kechishi natijasida organik moddalar to'planishi bilan birga sho'rlanish jarayonlarini ham keltirib chiqarmoqda.

Mexanik tarkibi sug'orilish suvlari tarkibidagi il zarrachalari tuproqning yuqori qatlamlarida ushlanib qolishi evaziga 30-35 yil ichida ma'lum bir miqdorda o'zgargan. Qatlamlarda fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori yengil qumloqlarda 25,7 foiz, qumloqlarda 11,08-15,41 foiz va qumlarda 8,1-9,6% gacha kuzatilsa, yirik chang (0,05-0,01mm) zarrachalari tuproq profilida 35,0-63,26% ni tashkil qiladi. Tadqiqotlar natijasida qumli mexanik tarkibli maydon – 23,72 foizni, qumloqli – 46,52 foizni va yengil qumoqli maydon 29,76 foizni tashkil etganligi aniqlandi.

Sho'rlanish tipi asosan xlorid-sulfatli bo'lib, tuproq profili bo'yicha quruq qoldiq miqdori 0,099-1,228 foizgacha o'zgarib turadi. Bu tuproqlarda singdirilgan asoslar miqdori 100 g tuproqda 4,0-6,95 mg-ekv gacha kuzatiladi. Singdirilgan kationlar tarkibida kalsiy 56,2-68,3 foiz, magniy 22,8-36,7 foiz, kaliy 4,9-8,8 foiz va natriy 1,5-3,9 foizni tashkil etadi. Ushbu tuproqlarda sho'rlanmagan (yuvilgan) yerlar – 8,33%, kuchsiz sho'rlangan yerlar – 34,91%, o'rtacha sho'rlangan yerlar – 43,15% va kuchli sho'rlangan yerlar 13,6 foizni tashkil etgan. 2004-yilgi ma'lumotlarga ko'ra sho'rlanmagan (yuvilgan) yerlar 18,6 foizni, kuchsiz sho'rlangan yerlar 29,42 foizni, o'rtacha sho'rlangan yerlar 40,81 foizni va kuchli darajada sho'rlangan yerlar 11,17 foizni tashkil qilgan. Taqqoslash natijalariga ko'ra 2018-yilda mos ravishda -10,27/+5,49/+2,34/+2,43 foizga o'zgarganligi aniqlandi. Ushbu holatda sizot suvlarining yer yuzasiga yaqinlashishi va bug'lanish natijasida suvda oson eruvchi tuzlarning tuproq yuqori qatlamlarida saqlanib qolishi sho'rlangan maydonlarning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Haydalma qatlamlarda gumus miqdori 0,410-0,750 foiz, umumiy azot miqdori 0,031-0,053 foiz, fosfor 0,068 - 0,094 foiz va kaliy 1,328-1,815 foizgacha kuzatiladi. C:N nisbati 6,30-8,54 oralig'ida tebranadi. Harakatchan shakldagi fosfor bilan juda kam ta'minlangan bo'lib, uning miqdori 8,6-15,0 mg/kg tashkil etadi. Kaliy bilan asosan kam va o'rtacha ta'minlangan bo'lib, mos ravishda 180-193 mg/kg va 231-298 mg/kg ni tashkil etadi. Karbonatlar miqdori 5,28-8,97 foizgacha kuzatiladi.

Tuproqlarning 0-30 sm qatlamida gumusning zahirasi 20,98 t/ga, yalpi azot zahirasi 1,58 t/ga, umumiy fosfor 3,28 t/ga va kaliy zahirasi 63,93 t/ga ni tashkil etadi. 2004 yilgi ma'lumotlariga ko'ra gumusning zahirasi 19,1 t/ga, yalpi azot

zahirasi 1,31 t/ga, umumiy fosfor 3,82 t/ga va kaliy zahirasi 66,87 t/ga ni tashkil etgan. 0-100 sm qatlamda ushbu tuproqlarda o'rtacha gumus miqdori 54,90 t/ga, umumiy azot 4,18 t/ga, umumiy fosfor 9,33 t/ga va kaliy 183,36 t/ga ni tashkil qiladi. Sug'orish manbai, davri va asosan yem xashak ekinlarining muttasil ekilishi bu tuproqlarning haydalma qatlamida organik moddalar va azot zahiralarining mos ravishda +1,88 t/ga va 0,27 t/ga ortishiga, aksincha fosfor va kaliy zahiralarining mos ravishda 0,54 t/ga va 2,94 t/ga kamayishiga sabab bo'lganligi kuzatildi.

Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar gidromorf tuproqlar hisoblanib, jami sug'oriladigan yerlarning 83,1 foizini tashkil etadi. Ushbu tuproqlar tumanning asosiy sug'oriladigan va dehqonchilik qilinadigan maydonlarini tashkil qiladi. Bu tuproqlar bir necha asrlar davomida dehqonchilik qilib kelinayotganligi bois, 0,7-1,2 m atrofida agroirrigatsion qatlam hosil bo'lgan.

Fizik loy (<0,01 mm) miqdori tuproq profili bo'yicha qumloqlarda 14,48-19,24 foiz, yengil qumoqlarda 21,3-29,08 foiz, o'rta qumoqlarda 31,08-41,06 foiz, og'ir qumoqlarda 45,52-57,81 foiz kuzatilsa, yirik chang (0,05-0,01mm) zarrachalari miqdori esa 22,54-48,76 foizni tashkil qiladi. O'tloqi-allyuvial tuproqlarning mexanik tarkibi haydalma qatlamda asosan o'rta va og'ir qumloqlardan, ayrim hududlarda yengil qumoq va qumloqlardan iborat. Sho'rlanish tipi asosan xlorid-sulfatli va ayrim hollarda sulfatli. Tuproq profili bo'yicha quruq qoldiq miqdori xlorid-sulfatli sho'rlanish tipidagi tuproqlarda 0,166-1,387 foizgacha, sulfatli sho'rlanish tipidagi tuproqlarda esa 0,086-0,213 foizgacha o'zgarib turadi. Cl⁻ ioni miqdori xlorid-sulfatli sho'rlanish tipidagi kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda 0,035-0,038 foiz, o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda 0,059-0,084 foiz, kuchli sho'rlangan tuproqlarda 0,241 foizni tashkil etadi. Sulfatli sho'rlanish tipidagi sho'rlanmagan (yuvilgan) tuproqlarda esa 0,007-0,009 foizni tashkil etadi.

Tumanda tarqalgan ushbu tuproqlardan sho'rlanmagan yerlar 1,07 foiz, kuchsiz sho'rlangan yerlar 55,65 foiz, o'rtacha sho'rlangan yerlar 33,97 foiz, kuchli sho'rlangan yerlar 9,16 foiz va juda kuchli sho'rlangan yerlar 0,15 foizni tashkil etadi. 2004-yilgi ma'lumotlar bo'yicha sho'rlanmagan yerlar 5,65 foiz, kuchsiz sho'rlangan yerlar 39,79 foiz, o'rtacha sho'rlangan yerlar 36,42 foiz, kuchli sho'rlangan yerlar 15,08 foiz va juda kuchli sho'rlangan yerlar 3,02 foizni tashkil etgan. Taqqoslash natijalariga ko'ra 2018-yilga kelib, mos ravishda -4,58/+15,86/-2,45/-5,92 va -2,87 foizga o'zgartirilganligi aniqlandi.


Tuproq profili bo'yicha singdirilgan asoslar miqdori 100 g tuproqda 10,26-13,80 mg-ekv. gacha kuzatiladi. Singdirilgan kationlar tarkibida kalsiy 44,92-54,58 foiz, magniy biroz ko'proq bo'lib uning miqdori 38,99-50,0 foiz, kaliy 1,72-3,92 foiz va natriy 1,03-3,51 foizni tashkil etadi.

Haydov qatlamida gumus 0,930-1,120 foiz, umumiy azot miqdori 0,044-0,083 foiz, fosfor 0,214 - 0,316 foiz va kaliy 1,755-2,210 foizgacha kuzatiladi. C:N nisbati 7,85-8,57 oralig'ida tebranadi. Harakatchan shakldagi fosfor bilan juda kam va kam ta'minlangan bo'lib, uning miqdori mos ravishda 8,6-14,8 mg/kg va 15,0-16,8 mg/kg ni tashkil etadi.

Taqqoslash natijalariga ko'ra, 2004-yilda 0-30 sm qatlamdagi gumusning zahirasi 42,3 t/ga, yalpi azot 3,11 t/ga, umumiy fosfor 12,46 t/ga va kaliy zahirasi

82,24 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib, ushbu qatlamdagi gumusning zahirasi o'rtacha 39,24 t/ga, yalpi azot 2,79 t/ga, umumiy fosfor 10,41 t/ga va kaliy zahirasi 79,73 t/ga ni tashkil etadi. Shunday qilib, gumus zahirasi 3,14 t/ga, yalpi azot 0,32 t/ga, umumiy fosfor 2,05 t/ga va umumiy kaliy zahirasi 2,51 t/ga ga kamaygan.

Tahlil natijalariga ko'ra 0-100 sm qatlamda oziqa elementlarining o'rtacha zahirasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadi: gumus 97,96 t/ga; yalpi azot 7,09 t/ga; umumiy fosfor 29,79 t/ga va kaliy 247,06 t/ga miqdorida kuzatiladi. Tuproq qatlamlarida yalpi fosforning ko'p miqdorda uchrashi bu biologik akkumulyatsiya natijasi hamda fosforli mineral o'g'itlar kiritilishidan dalolat beradi. Harakatchan shakldagi fosfor esa faqatgina haydov va haydov osti qatlamlarida yetarli miqdorda uchraydi. Quyi qatlamlarga borgan sari uning miqdori keskin kamayishi, shuningdek qiyin eruvchi shaklda kuzatiladi. Kaliy bilan ham xuddi shu holat takrorlanadi, ya'ni tuproq qatlamlarida yalpi kaliy miqdori ko'p, biroq almashinuvchi shakli bilan kam yoki o'rtacha darajada ta'minlangan. Bu holat kaliyning qishloq xo'jalik ekinlari bilan hamda meliorativ chora-tadbirlar natijasida suv bilan olib chiqib ketilishi orqali izohlash mumkin.



3-rasm. Vobkent tumani sug'oriladigan tuproqlarining 2004-2018-yillardagi sho'rlangan maydonlar dinamikasi, foiz hisobida

Sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlar gidromorf tuproqlar hisoblanib, jami sug'oriladigan yerlarning 0,78 foizini tashkil etadi. Ushbu tuproqlar tuman sug'oriladigan hududlarida kichik maydonlarda, mahalliy pastqamliklar, zovur va suv havzalari atrofida, sizot suvlari sathi 1 metrdan yaqin bo'lgan sharoitda shakllangan. Ushbu tuproqlarni o'rganish davomida suv tanqisligi kuzatilgan so'nggi yillarda yer osti suvlaridan sug'orish sifatida foydalanish, meliorativ chora-tadbirlarga katta e'tibor berilayotgani va kollektor-zovur tizimlari tozalanib, oqavaligi yaxshi yo'lga qo'yilganligi natijasida bu tuproqlarning o'tloqi-allyuvial tuproqlarga transformatsiyalanganligi kuzatildi. Bu tuproqlar genetik gorizontlari ham o'zgarganligi aniqlandi. Jumladan, gleylanish jarayoni 110-150 sm oralig'idagi chuqurliklarda qatlam-qatlam ko'rinish namoyon bo'ladi. Fizik loy miqdori tuproq profili bo'yicha qumloqlarda 14,82 foiz, yengil qumoqlarda 26,85-29,1 foiz, o'rta qumoqlarda 32,1-38,62 foiz, og'ir qumoqlarda 49,04-54,7 foiz va loylarda 61,83 foiz kuzatilsa, yirik chang (0,05-0,01mm) zarrachalari esa 38,18-85,18 foizni tashkil qiladi. Ushbu tuproqlar asosan o'rta va og'ir qumoqlardan tashkil topgan. Bu tuproqlar egallagan maydonlarning 66,28 foizini o'rta qumoqlar va 33,72 foizini og'ir qumoqlar tashkil etadi. Sho'rlanish tipi asosan sulfatli, ayrim

hududlarda xlorid-sulfatli turi uchraydi. Haydov qatlamida quruq qoldiq miqdori sulfatli sho'rlanish tipidagi o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda 0,705-1,137%, xlor 0,058-0,070%, sulfat 0,441-0,745%, kuchli sho'rlangan tuproqlarda mos ravishda 2,082%, 0,108 foiz va 1,345% miqdorida kuzatiladi. Xlorid-sulfatli sho'rlanish tipidagi tuproqlar o'rtacha sho'rlangan bo'lib, haydov qatlamida quruq qoldiq miqdori 0,766-0,910%, xlor 0,09-0,132%, sulfat 0,420-0,465% ni tashkil qiladi

Ushbu tuproqlarning 46,23% ini o'rtacha sho'rlangan va 53,77% ini kuchli darajada sho'rlangan maydonlar tashkil qiladi. 2004-yilgi ma'lumotlarga ko'ra kuchsiz sho'rlangan yerlar 12,3 foizni, o'rtacha sho'rlangan yerlar 42,81 foizni va kuchli darajada sho'rlangan yerlar 44,89 foizni tashkil qilgan. O'tgan yillar bilan taqqoslaganda kuchsiz sho'rlangan maydonlar 12,3 foizga kamayganligi, o'rtacha sho'rlangan yerlar 3,42 foiz, kuchli sho'rlangan yerlar 8,88 foizga oshganligi kuzatildi. Tuproq profili bo'yicha singdirilgan asoslar miqdori 100 g tuproqda 9,84-13,33 mg-ekv. gacha kuzatiladi. Singdirilgan kationlar tarkibida kalsiy 51,58-59,64 foiz, magniy biroz ko'proq bo'lib uning miqdori 35,79-42,66 foiz, kaliy 1,87-3,55 foiz va natriy 1,66-3,41 foizni tashkil etadi.

Haydov qatlamida gumus 0,968-1,054%, umumiy azot 0,060-0,077%, fosfor 0,166 - 0,220% va kaliy 0,966-1,154% gacha kuzatiladi. C:N nisbati 7,75-8,72 oralig'ida tebranadi. Harakatchan shakldagi fosfor bilan juda kam va kam ta'minlangan tuproqlar bo'lib, uning miqdori mos ravishda 12,5-14,8 mg/kg va 15,5 mg/kg ni tashkil etadi. Almashinuvchi kaliy bilan kam va o'rtacha darajada ta'minlangan bo'lib, haydov qatlamida mos ravishda 181-198 mg/kg va 216-272 mg/kg ni tashkil etadi. Karbonat miqdori 6,8-8,6 foizgacha kuzatiladi. 2004-yilda 0-30 sm qatlamdagi gumusning zahirasi 39,98 t/ga, yalpi azot zahirasi 2,91 t/ga, umumiy fosfor 8,52 t/ga va kaliy zahirasi 43,94 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib, 0-30 sm qatlamdagi gumusning zahirasi o'rtacha 38,94 t/ga, yalpi azot zahirasi 2,76 t/ga, umumiy fosfor 7,68 t/ga va kaliy zahirasi 42,87 t/ga ni tashkil etadi. O'tgan davr 2004-yil bilan taqqoslaganda, gumus zahirasi 1,04 t/ga, yalpi azot 0,15 t/ga, umumiy fosfor 0,84 t/ga va kaliy zahirasi 1,07 t/ga ga kamayganligi aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra 0-100 sm qatlamda oziqa elementlarining o'rtacha zahirasi quyidagicha ekanligi aniqlandi: gumus 90,62 t/ga, yalpi azot 7,00 t/ga, umumiy fosfor 22,31 t/ga va kaliy 120,68 t/ga ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bob ikkinchi bandi esa «*Buxoro viloyati Vobkent tumani tuproqlari sifatini baholashni takomillashtirish*» deb nomlangan. Bu bandda tuman massivlari tuproqlari dala, kameral va laboratoriya ishlari barcha uslubiy qo'llanmalar asosida bajarilganligi hamda tumanda tarqalgan tuproqlarning xossa-xususiyatlari keltirilgan. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar asosida tayanch hudud misolida konturlar bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish bo'yicha 1:10000 masshtabli xaritasi ishlab chiqilgan va amaliyotda foydalanish uchun tavsiya qilingan.

